

PSIXOLOGIK BILIMLAR RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI

Berdikulova Muxayyo Toshtemirovna
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston
Toshtemirova Zilola Mirtemir qizi
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi geografik omillar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Turli hududlarda psixologik qarashlarning o'ziga xos tarzda taraqqiy etishi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniyat hamda ilmiy markazlarning joylashuvi psixologiya fanining rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgani yoritiladi. Sharq va G'arb psixologiyasi o'rtasidagi tafovutlar, Yevropa va Amerika ilmiy maktablari hamda Osiyo mamlakatlaridagi psixologik yo'nalishlar qiyosiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, geografik omil, madaniyat, Sharq va G'arb psixologiyasi, ilmiy maktablar, ijtimoiy muhit, globallashuv, milliy mentalitet.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Бердикулова Мухайё Тоштемировна
Преподаватель Каршинского государственного университета. Узбекистан
Тоштемирова Зилола Миртемир кизи
Студентка Национального педагогического университета Узбекистана

Аннотация: В данной статье анализируется формирование и развитие психологических знаний с точки зрения географических факторов. Подчеркивается, как специфическое развитие психологических взглядов в разных регионах, социально-экономические условия, культура и расположение научных центров повлияли на развитие психологии. Проводится сравнительный анализ различий между восточной и западной психологией, европейскими и американскими научными школами, а также психологических тенденций в странах Азии.

Ключевые слова: психология, географический фактор, культура, восточная и западная психология, научные школы, социальная среда, глобализация, национальный менталитет.

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE

Berdikulova Mukhayyo Toshtemirovna
Teacher at Karshi State University. Uzbekistan
Toshtemirova Zilola

Student of the National Pedagogical University of Uzbekistan

Annotation: This article analyzes the formation and development of psychological knowledge from the perspective of geographical factors. It highlights how the specific development of psychological views in different regions, socio-economic conditions, culture and the location of scientific centers influenced the development of psychology. The differences between Eastern and Western psychology, European and American scientific schools and psychological trends in Asian countries are analyzed comparatively.

Keywords: psychology, geographical factor, culture, Eastern and Western psychology, scientific schools, social environment, globalization, national mentality.

Psixologiya inson ruhiyati va xulq-atvorini o'rganuvchi fan sifatida uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Uning rivojlanish jarayoni nafaqat tarixiy davrlar bilan, balki geografik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir hududning tabiiy sharoiti, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va ilmiy an'analari psixologik bilimlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Geografik jihat deganda muayyan mintaqaning tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari tushuniladi. Aynan shu omillar turli mamlakatlarda psixologiyani o'ziga xos yo'nalishlari va ilmiy maktablarining shakllanishiga sabab bo'lgan. Shu bois psixologik bilimlarning rivojlanishini geografik nuqtai nazardan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi davrlardayoq psixologik bilimlarning shakllanishida geografik muhit, madaniy almashinuv va ilmiy markazlarning mavjudligi muhim rol o'ynagan. Ma'lumki, psixologik fikrlar dastlab falsafa va diniy ta'limotlar doirasida yuzaga kelgan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida inson ruhiyati, ong, tafakkur va axloq masalalari muhim o'rin egallagan. Qadimgi Yunonistonda esa psixologik fikrlar ilmiy-falsafiy asosda rivojlandi. Masalan, Aristotel o'zining "Jon haqida" (De Anima) asarida ruh va tana munosabatini ilmiy asosda tahlil qilgan. Yunon sivilizatsiyasining savdo-sotiq va madaniy aloqalarga ochiqqligi psixologik tafakkurning kengayishiga xizmat qilgan.

XIX asrga kelib psixologiya Yevropada mustaqil fan sifatida shakllandi. Ayniqsa, Germaniyada eksperimental psixologiya rivojlandi. 1879-yilda Wilhelm Wundt tomonidan Leyptsig shahrida birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilishi psixologiyani fan sifatida e'tirof etilishiga asos bo'ldi. Yevropada sanoat inqilobi, urbanizatsiya jarayoni va tabiiy fanlarning rivojlanishi psixologiyani ilmiylashuviga olib keldi. Fransiya va Angliyada ham psixologik tadqiqotlar kengaydi. Yevropa psixologiyasi ko'proq shaxsning individual tajribasini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, bu G'arb jamiyatlarining individualistik qadriyatlari bilan bog'liq edi.

XX asr boshlarida psixologiya markazi qisman AQShga ko'chdi. Bu yerda psixologiya ko'proq amaliy yo'nalishda rivojlandi. Keng hudud, migratsiya va madaniy xilma-xillik individual farqlarni o'rganishga imkon yaratdi.

Quyida dunyo davlatlarida psixologik bilimlar rivojlanishi o'rganilgan:

1-jadval. Dunyo davlatlarida psixologik bilimlar rivojlanishi

Davlat	Tadqiqot olib borgan olimlar	Yo'nalish	Xususiyati
Germaniya	Wilhelm Wundt	Ekspirimental psixologiya	Birinchi psixologik laboratoriya (1879), ong va sezgi jarayonlarini tajribaviy o'rganish
Germaniya	Hermann Ebbinghaus	Xotira psixologiyasi	Unutish egri chizig'i, tajribaviy xotira tadqiqotlari
AQSh	William James	Funksionalizm	Ongning amaliy funksiyalarini o'rganish
AQSh	John B. Watson	Bixeviorizm	Xulq-atvorni kuzatiladigan hodisa sifatida tadqiq etish
AQSh	B. F. Skinner	Operant bixeviorizm	Rag'bat va jazoga asoslangan xulq-atvor nazariyasi
Fransiya	Alfred Binet	Psixometriya	Intellekt testlarini yaratish
Angliya	Francis Galton	Individual farqlar psixologiyasi	Psixometrik o'lchovlar va statistik metodlar
Rossiya (SSSR)	Ivan Pavlov	Fiziologik psixologiya	Shartli refleks nazariyasi
Rossiya (SSSR)	Lev Vygotsky	Madaniy-tarixiy psixologiya	Shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit roli
Shveysariya	Jean Piaget	Kognitiv rivojlanish	Bolalar tafakkur bosqichlari nazariyasi
Avstriya	Sigmund Freud	Psixoanaliz	Ong osti jarayonlari va shaxs tuzilmasi
Niderlandiya	Geert Hofstede	Madaniyatlararo psixologiya	Madaniy o'lchovlar nazariyasi (individualizm-kollektivizm va boshqalar)
AQSh	Harry C. Triandis	Madaniyatlararo psixologiya	Individualistik va kollektivistik jamiyatlar tadqiqi

Manba: "A History of Modern Psychology" (D.P.Schultz, S.E.Schultz), "An Introduction to the History of Psychology" (B.R.Hergenhahn, T.Henley) kitoblari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Osiyo mamlakatlarida psixologiya milliy va madaniy xususiyatlar bilan boyidi. Masalan, Yaponiyada ijtimoiy uyg'unlik va jamoaviylik muhim qadriyat hisoblanadi. Xitoyda konfutsiylik an'analari psixologik qarashlarga ta'sir ko'rsatgan. Sharq jamiyatlarida kollektivizm (jamoaviylik) ustuvor bo'lib, shaxs jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi. Shu sababli bu hududlarda ijtimoiy

psixologiya va guruhiiy munosabatlar chuqur o'rganiladi. Markaziy Osiyoda ham mustaqillikdan so'ng milliy psixologiya rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududning tarixiy merosi, oilaviy qadriyatlari va mentaliteti psixologik tadqiqotlarda inobatga olinmoqda.

O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil tus oldi. Milliy psixologiya maktabining shakllanishida bir qator olimlar muhim hissa qo'shganlar. Jumladan, E.G'. G'oziev umumiy va yosh davrlari psixologiyasi sohasida fundamental tadqiqotlar olib borib, shaxs kamolotida ijtimoiy muhit va milliy qadriyatlarning o'rnini asoslab berdi. Olimning ta'kidlashicha, har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhiti mavjud bo'lib, bu shaxs shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

V.M. Karimova ijtimoiy psixologiya yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borib, o'zbek jamiyatiga xos jamoaviylik, oilaviylik va an'anaviy qadriyatlarning shaxs psixologiyasiga ta'sirini tahlil qilgan.

Shuningdek, M.G. Davletshin yosh va pedagogik psixologiya sohasida ilmiy maktab yaratgan bo'lib, ta'lim jarayonida milliy va hududiy omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Bu tadqiqotlar psixologik bilimlarning geografik jihatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Psixologik bilimlarning taraqqiyotida quyidagi geografik omillar muhim ahamiyatga ega:

- Tabiiy-iqlim sharoiti – inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi – ilmiy markazlar va tadqiqot institutlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Xalqaro ilmiy hamkorlik va zamonaviy axborot texnologiyalari psixologik bilimlar geografiyasining kengayishiga xizmat qilmoqda. Bunda har bir hududning madaniy, tabiiy va iqtisodiy – ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish zarurli alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologik bilimlarning rivojlanishi tarixiy jarayon bo'lish bilan birga, geografik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Turli hududlarning tabiiy sharoiti, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy taraqqiyoti va madaniy qadriyatlari psixologik qarashlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Sharq va G'arb psixologiyasi o'rtasidagi tafovutlar, Yevropa va Amerika ilmiy maktablarining o'ziga xosligi hamda Osiyo mamlakatlaridagi milliy yondashuvlar psixologik bilimlarning geografik jihatlarini yaqqol namoyon etadi.

Inson psixologiyasi shakllanishida tabiiy muhit (iqlim, geografik joylashuv, landshaft, ekologik sharoit) ham muhim rol o'ynaydi. Tabiiy sharoit insonning hissiy holati, xulq-atvori, motivatsiyasi va hatto dunyoqarashiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy psixologiyada bu masala asosan ekologik psixologiya, atrof-muhit psixologiyasi va madaniyatlararo psixologiya doirasida o'rganiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil hududlar, tog'li yoki suv havzalari yaqinida yashash inson ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiat qo'ynida vaqt o'tkazish- stressni kamaytiradi, diqqatni tiklaydi, ijobiy emotsiyalarni kuchaytiradi. Roger Ulrich stressni kamaytirish nazariyasini ilgari surib, tabiat manzarasi inson organizmida fiziologik tinchlanish reaksiyasini chaqirishini isbotlagan.

Geografik sharoit madaniyat shakllanishiga ta'sir qiladi, madaniyat esa o'z navbatida shaxs psixologiyasini belgilaydi. Masalan, qishloq xo'jaligiga asoslangan jamiyatlarda kollektivizm kuchliroq bo'ladi; Sanoati rivojlangan shaharlarda individualizm ustun bo'lishi mumkin. Bu borada Geert Hofstede turli mamlakatlar madaniyatini solishtirib, individualizm va kollektivizm o'lchovlarini ishlab chiqqan.

Tabiiy muhit inson psixologiyasining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Iqlim, landshaft, ekologik sharoit va geografik joylashuv insonning hissiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. John B. Watson. Behaviorism. New York, 1924.
2. B. F. Skinner. Science and Human Behavior. New York, 1953.

3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2010.